



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024-YIL YANVAR-OKTABR OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 71-202-86-66
www.toshvilstat.uz

Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari



(2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6758 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 426 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 6,3 %) Chirchiq shahriga, 188 tasi (2,8 %) Yangiyo'l shahriga, 962 tasi (14,2 %) Zangiota tumaniga, 585 tasi (8,7 %) Qibray tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2024- yil 1- noyabr holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, %da
Jami:	6758	1092	100,0
Nurafshon sh	150	35	2,2
Olmalik sh	260	38	3,8
Angren sh	342	56	5,1
Bekobod sh	161	25	2,4
Ohangaron sh	165	25	2,4
Chirchiq sh	426	49	6,3
Yangiyo'l sh	188	20	2,8
Oqqo'rg'on	153	35	2,3
Ohangaron	235	41	3,5
Bekobod	176	52	2,6
Bo'stonliq	244	39	3,6
Bo'ka	95	37	1,4
Quyichirchiq	242	37	3,6
Zangiota	962	118	14,2
Yuqori Chirchiq	412	61	6,1
Qibray	585	73	8,7
Parkent	449	131	6,6
Piskent	123	20	1,8
O'rta Chirchiq	277	50	4,1
Chinoz	191	23	2,8
Yangiyo'l	342	51	5,1
Toshkent	580	75	8,6

Toshkent viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 109 296,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,2 % ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik ko'rsatkichlari o'sish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o'sayotganligini ko'rsatadi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Toshkent viloyatida 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 35563,1 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.






Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 92438,8 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,6 % ni tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

B seksiya

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4574,7 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,2 % ini tashkil etdi.



Yanvar-oktabr

2022-y	3256,1 mlrd. soʻm
2023-y	3756,4 mlrd. soʻm
2024-y	4574,7 mlrd. soʻm

FHI, % da

2022-y	85,6%
2023-y	101,6%
2024-y	99,7 %

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **92 438,8** mlrd soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **107,5 %** ini tashkil etdi.

Yanvar-oktabr

2022-y.	64480,5 mlrd soʻm
2023-y.	71233,3 mlrd soʻm
2024-y	92438,8 mlrd soʻm

FHI, % da

2022-y.	105,3 %
2023-y.	102,8 %
2024-y	107,5 %



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning oʻsish surʼati
(Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da)


Karbamid		Paxta chigiti		Kalava ip	
2024	112,7	2024	69,9	2024	110,6
2023	97,8	2023	81,5	2023	72,2
2022	86,7	2022	103,7	2022	77,9

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	219,5	192,5	-27
Shakar, ming t.	328,5	238,4	-90,1
Paxta tolasi ming t.	33,3	22,8	-10,5
Portlandsement, ming t.	2526,9	3641,9	1115,0

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 9,1 % (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 140,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 7,9 % (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,9 % (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,1 % (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,2 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 %ni (2023- yilning yanvar-oktabr oylarida – 1,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali 9,7 % (8,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 51,9 % (53,0 %) va quyi texnologiyalisi – 23,2 % (24,7 %) ni tashkil etdi.




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati 40845,6 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 37,4 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 101,9 % ga koʻpaydi.


2023- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati 33862,8 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 40,7 % ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,6 % ni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,2 % ni ishlab chiqarish hajmi esa 4086,1 mlrd soʻmni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,2 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,0 %ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,9 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 12003,0 mlrd soʻmni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,9 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 123,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 3209,1 mlrd so'mni tashkil etdi.


2023- yilning yanvar- oktabr oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 122,0 % ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 98,6 % ni tashkil etgan holda ishlab chiqarish hajmi 5117,0 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 108,7 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0%, fizik hajm indeksi 95,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 3329,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar- oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 129,4 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni, fizik hajm indeksi 103,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4975,8 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,1 % ni fizik hajm indeksi esa 69,7 % ni tashkil etgan.

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi 182,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2513,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni fizik hajm indeksi esa 133,3 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 136,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2771,1 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni fizik hajm indeksi esa 88,3 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar- oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 100,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2560,2 mlrd so'mni tashkiletdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar- oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni fizik hajm indeksi esa 105,5 % ni tashkil etgan.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar- oktabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi 173,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2309,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar- oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni fizik hajm indeksi esa 183,4 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 %, fizik hajm indeksi 4,3 martaga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 662,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar- oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni fizik hajm indeksi esa 129,1 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024- yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11949,4 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,6 % ni) tashkil etadi.


2024- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga ko'payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt s	16587,7	16678,1	90,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2427,2	2599,0	171,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 333,9 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,3% ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	54,0	62,7	8,7
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	1,0	2,5	1,5


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 54,0 mlrd so'm yoki 16,1 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek, Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 2,5 mlrd so'm va 16,1 % ga ko'paygan.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 18766,2 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,2 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023- yil yanvar-oktabr



2024- yil yanvar-oktabr



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd soʻm)da

2023- yil yanvar-oktabr



2024- yil yanvar-oktabr




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida

(jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 24511,9 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,4 % ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oʻsib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu koʻrsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi oʻsib borayotganligini hamda eksport hajmi koʻpayotganligini bildiradi.

**Jami sanoat
mahsulotlari hajmidagi
ulushi,
% da**



**Kichik biznes subyektlari
tomonidan ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari hajmi
(mlrd soʻm)**

